



THE REPRESENTATION OF ANTHROPOCENTRISM IN ENGLISH PAREMIOLOGICAL UNITS

Mukhammad Chariyevich Chutpulatov

Vice-Rector for Academic Affairs

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), docent

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

<https://orcid.org/>

<https://doi.org/10.36078/1767726133>

Abstract. This article investigates the manifestation of anthropocentrism in English paremiological units within the framework of anthropocentric and linguocultural approaches. The relevance of the study is determined by the growing prominence of the human-centered paradigm in modern linguistics and by the potential of paremiological material to reveal national mentality through language. The main objective of the research is to identify the mechanisms of explicit and implicit representation of the human factor in English proverbs and to classify them according to universal and national-cultural semantic layers. The research is based on a paremiological minimum consisting of 380 English proverbs compiled through the method of complete selection. Semantic, structural, and linguocultural analyses were employed to examine the ways anthropocentrism is reflected in these units. The findings demonstrate that English paremiological material embodies universal human values such as patience, diligence, responsibility, honesty, and emotional restraint, while simultaneously reflecting national-cultural features characteristic of the English worldview. Among them are conservatism, loyalty to monarchy, the cultural significance of the concept of "home," weather-related imagery, and elements of Christian tradition. The study reveals that national specificity in English proverbs is predominantly expressed implicitly, through metaphorical and symbolic lexical units, which function as cultural codes of the English mentality. This implicit character of anthropocentrism creates interpretative challenges for learners of English as a foreign language and highlights the importance of developing linguocultural competence. The results contribute to a deeper understanding of the structural and semantic representation of anthropocentrism in English paremiological discourse and may be applied in linguocultural studies and foreign language teaching methodology.

Keywords: anthropocentrism; paremiological unit; proverb; linguoculturology; implicit meaning; explicit meaning; national-cultural specificity; linguistic worldview.

INGLIZ TILIDAGI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARIDA ANTROPOSENTRIZMNING IFODALANISHI

Muxammad Chariyevich Chutpulatov

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy identivlik tushunchasining nazariy asoslari, uning mohiyati va zamonaviy ommaviy axborot vositalarida aks etish jarayonidagi dolzarb muammolar kompleks tarzda tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot makonining kengayishi va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi sharoitida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Muallif milliy identivlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — tarix, madaniyat, til, qadriyatlar, mentalitet hamda ijtimoiy ong tushunchalarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritadi. Maqolada Benedikt Anderson, Erik Xobsbaum, Entoni Smit, Samuel Xantington kabi yetakchi xorijiy olimlarning qarashlari tahlil qilinib, ularning g'oyalari milliy identivlikning media orqali shakllanishi bilan bog'liq holda talqin etiladi. Shuningdek, O'zbekiston media makonida milliy manfaatlar, qadriyatlar va madaniy merosni yoritish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda ommaviy madaniyat, stereotiplar, axborot manipulyatsiyasi va kosmopolitizmning milliy identivlikka ta'siri ham muhokama qilinadi. Muallif jurnalistlarning professional mas'uliyati, milliy mentalitetni hisobga olgan holda axborot tayyorlash zarurligini asoslab beradi. Tadqiqot natijalari OAV milliy identivlikni mustahkamlashda muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Ключевые слова: milliy identivlik; madaniyat; qadriyat; siyosiy jarayonlar; stereotip; manipulyatsiya; migratsiya; multikulturalizm; madaniyatlararo muloqot.

Kirish

XIX asrda falsafa fanidan tilshunoslikka kirib kelgan “antroposentrizm” atamasi hozirgi davrda ilmiy tadqiqotlarda samarali va keng qo'llanilmoqda. Ayni paytda antroposentrizm tilshunoslikdagi ustuvor ilmiy paradigmalardan biri bo'lib, unda inson lingvistik voqelik markazi sifatida e'tirof etiladi hamda tilning asosiy ishtirokchisi sifatida talqin qilinadi. O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab tilda antroposentrizmni o'rganish masalasi ilmiy tadqiqotlarda yangi yo'nalish — antroposentrik paradigmanning shakllanishiga sabab bo'ldi. Hozirgi zamon tilshunosligida psixolingvistika, sotsiolingvistika, pragmatik lingvistika,

lingvomadaniyatshunoslik kabi antropotsentrik yondashuvga asoslangan yoʻnalishlar qatorida gender tilshunosligi ham mustahkam oʻrin egallaydi. Maʼlumki, tilning deyarli barcha sohalari, tizimi va uning faoliyati gender aspektida oʻrganilishi mumkin [Kirilina 2000].

Antroposentrizm falsafiy taʼlimot sifatida insonning maʼnaviy va tashqi dunyosini uning irqiy, fiziologik, milliy, geografik, psixologik hamda ijtimoiy xususiyatlari asosida qamrab oladi. Tilshunoslikda antroposentrizm mazkur xususiyatlarni tilning lugʻat tarkibi va boshqa lisoniy birliklar, xususan, paremiyalar orqali ifodalash vositasi sifatida namoyon boʻladi. Maqollarda dunyo tasviri, inson qanday boʻlishi kerakligi, uning ijobiy va salbiy fazilatlari hamda jamiyatdagi xatti-harakat meʼyorlari millat vakillarining mental timsoli va xalq donishmandligida aks etadi. Shu bois ingliz tilidagi paremiyalar Britaniya xalqining turmush tarzi, mamlakatning geografik joylashuvi, tarixi, anʼanalari va madaniyati, asrlar davomida saqlanib kelayotgan ijtimoiy-madaniy oʻrnini yaqqol ifodalaydi, shuningdek, ingliz xalqining ijtimoiy-madaniy hayotidagi oʻzgarishlarga munosabati, qadriyatlar tizimi, jamoat axloqi va etikasi, dunyoga hamda boshqa xalqlarga munosabatini aks ettiradi [Dubrovin 2008].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xalqning tarixiy tajribasi hamda shu asosda shakllangan ijtimoiy, estetik, axloqiy-etik va maʼnaviy dunyoqarashini eng yorqin aks ettiruvchi til birliklari, shubhasiz, paremiyalardir. Har qanday tilda soʻzlashuvchi lison sohiblari jinsi, maʼlumoti va ijtimoiy kelib chiqishidan qatʼi nazar, paremiyalar orqali nutqda ifodalangan anʼanaviy-madaniy va madaniy-lisoniy qadriyatlar, shuningdek, anʼanaviy yoki diniy meʼyor hamda qoidalarning umumlashtirilgan tashuvchisi sifatida namoyon boʻladi.

Paremiyalarni (maqollar, matallar, hikmatli soʻzlar, topishmoqlar, irimlar va boshqalar) oʻrganishga folklor — xalq ogʻzaki ijodi namunalarini tadqiq etish turtki boʻlgan. Xalq ijodiyoti manbalari — mifologiyani jamiyatning zamonaviy madaniy va ijtimoiy meʼyorlari bilan bogʻlash filologlar bilan bir qatorda antropologlar, psixologlar va boshqa mutaxassislar uchun ham keng tahliliy material taqdim etadi.

Darhaqiqat, lingvistik doirada paremiyalarni oʻrganish XIX asr oxiri — XX asr boshlarida boshlangan; mazkur sohaga oid masalalarga 1950–1980-yillarda V. P. Anikin [Anikin 1957], A. M. Babkin [Babkin 1957] va boshqalar asarlarida salmoqli eʼtibor qaratgan; ularning gʻoya va qarashlari Z. K. Tarlanov [Tarlanov 1999], V. M. Mokiyeenko [Mokiyeenko 2015], G. L. Permyakov [Permyakov 1988], N. N. Semyonenko [Semyonenko 2011], L. B. Savenkova [Savenkova 2015], M. A. Bredis [Bredis 2015] va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan.

Paremiyalarni tadqiq etish bugungi kunda ham dolzarbdir. Xususan, RXDUda M. A. Bredis va O. V. Lomakina tahriri ostida 2020-yilda chop etilgan “Chegarasiz paremiologiya” [Bredis 2020] jamoaviy monografiyasi hamda ispan paremiologi Luis J. Tosin Fernandesning 2024-yil sentabr oyida nashr etilgan “Paremiology in the Digital Era” (*Raqamlashtirish davrida paremiologiya*) asarida “Survival, adaptability, and prospects for proverb scholarship in the 21st century” (*XXI asrda maqollarni saqlab qolish, moslashish va o‘rganish istiqbollari*) sarlavhali tadqiqotida maqollarning teleserialardan internet memlarigacha, shuningdek, video o‘yinlar, ommabop musiqa va grafik adabiyotlarda qo‘llanishi, ya’ni zamonaviy ommaviy axborot vositalarida an’anaviy donolik belgilarining turli maqsadlarda ishlatilishi tahlil etiladi.

Shunday qilib, XXI asr boshlarida ham, bugungi kunda ham, asrimizning birinchi choragiga kelib, o‘tgan asrda boshlangan tilning paremiologik fondini tadqiq etishga bo‘lgan uzluksiz qiziqish kuzatiladi. Paremiyalar boshqa til birliklaridan boy mazmun plani bilan farqlanadi, chunki ularda umuminsoniy (umumiy) va milliy-madaniy (xususiy) mazmun planlarini ajratish mumkin. Umuminsoniy mazmun mehnat, mahorat, mehnatsevarlik kabi milliy, lisoniy, tarixiy, madaniy va mental farqlardan qat’i nazar, butun insoniyatga xos ekzistensial plannning umumiylikni aks ettiradi, milliy-madaniy o‘ziga xoslik esa alohida farqlarni namoyon etadi.

Biz uchun paremiyalarni o‘rganishda antroposentrik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Y. S. Kubryakova bu ilmiy obyektlarni, avvalo, ularning inson hayotidagi o‘rni, maqsadi hamda shaxsni rivojlantirish va takomillashtirish funksiyalarini o‘rganish bilan bog‘laydi [Kubryakova 1995: 212]. Keyingi asarlarida muallif “til nafaqat voqelikni aks ettiradi yoki unga ta’sir ko‘rsatadi, balki u inson ongidagi ‘oyna’dur” degan fikrni ilgari suradi [Kubryakova 2004: 12].

M. D. Djusupov ta’kidlaganidek, tilning paremiologik birliklari tizimida mazmun planida insonga markaziy o‘rin berilgan antroposentrik maqollar alohida o‘rin tutadi. Ular insonga, uning mehnati, fe’l-atvori va milliy mentalitetiga bevosita yoki obrazli, mavhum va umumlashtirilgan tarzda yo‘naltiriladi. Muallif fikricha, insonga yo‘naltirilganlik — antroposentrizm maqol, matal, frazeologik birlik, ruboiy va didaktik gaplarda turli darajada namoyon bo‘ladi hamda eksplitsit (oshkora) va implitsit (yashirin) shakllarda ifodalanadi. Masalan, rus tilida: Баба с возу — кобыле легче (eksplitsit), Без труда не вынуть рыбку из пруда (implitsit); o‘zbek tilida: Yigitning so‘zi otadan, qizning so‘zi onadan (eksplitsit), Ishlasang tishlaysan (implitsit); ingliz tilida: Like father, like son (eksplitsit), A house is not a home (implitsit) [Djusupov 2022].

Bizning tadqiqotimizda ingliz tilining irland, shotland va uels, yanada kengroq olganda Amerika variantlarining paremiologik fondi inobatga olinmaydi; e’tibor

ingliz tilining Britaniya variantiga xos xilma-xillik hamda Angliya aholisi madaniyati bilan bog'liq realiyalarni tahlil qilishga qaratiladi. Chunki Britaniya va Amerika maqollari shakl jihatidan bir oz farq qilsa-da, asosan ekvivalent ma'noga ega bo'ladi. Masalan: *There's no smoke without fire (brit.) — Where there's smoke, there's fire (amer.)* (Olovsiz tutun bo'lmaydi — Tutun bor joyda olov bo'ladi — o'zb. ekviv.: Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi); *Too many cooks spoil the broth — Too many cooks spoil the soup* (Oshpaz ko'p bo'lsa bulyonni buzadi — Oshpaz ko'p bo'lsa sho'rvani buzadi — o'zb. ekviv.: Cho'pon ko'p bo'lsa qo'y ko'p o'ladi). Ya'ni o'xshash ma'noli leksemalarning tanlanishi yoki tuzilishidagi mayda o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan farqlar inobatga olinmaydi.

Tadqiqotimiz doirasida to'liq tanlab olish usuli asosida 380 ta ingliz maqolidan iborat paremiologik minimum shakllantirildi va bu ingliz tilidagi paremiyalarda antroposentrizmning ifodasi bo'yicha birlamchi tahlil o'tkazish hamda dastlabki xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Ingliz tilidagi paremiologik birliklarda antroposentrizmning aks etishi tahlil etilganda, mazkur turdagi paremiyalar, avvalo, ikki katta guruh — umuminsoniy-universal hamda ingliz milliy madaniyatini o'zida mujassam etuvchi paremiologik birliklarga ajratilishi mumkin. Ingliz tilidagi maqollarda insonga yo'naltirilganlik (antroposentrizm) umuminsoniy-universal xarakterda bo'lib, eksplitsit ma'noda insonga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish, insonni yoki uning axloqiy fazilatlarini, shuningdek, uning atrofidagi shaxslarni (oila a'zolari, do'stlari, hamkasblarini), ya'ni insonni moddiy va tabiiy dunyodan ajratib turadigan barcha jihatlarni anglatuvchi turli so'z turkumlariga (ot, sifat, olmosh, son, fe'l va boshqalar) mansub lug'aviy birliklar orqali ifodalanadi.

Masalan, sabr-toqat, chidamlilik, odoblilik, o'z qilmishiga mas'uliyat va uning oqibati uchun javobgarlikni zimmasiga olish qobiliyati mohiyatan umuminsoniy-universal qimmatli axloqiy fazilatlar sifatida namoyon bo'ladi (masalan: *As you make your bed, so you must lie on it — To'shakni qanday solsang, shunday uxlaysan*, ya'ni *Nima eksang, shuni o'rasan*; *A bad workman always blames his tools — Yomon usta asbobini ayblaydi*; *First think, then speak — Avval o'yla, keyin so'yla*). Bundan tashqari, ingliz tili paremiologik fondida ehtiyotkorlik, mehnatsevarlik, halollik kabi umuminsoniy fazilatlarining ifodalanishiga ham guvoh bo'lamiz (1-jadval).

1-jadval

Ingliz tilidagi antroposentrizmga asoslangan umuminsoniy universal paremiyalarning tasnifi

Guruhlar	Misollar
Sabr-toqat va mas'uliyatni ifodalovchi maqollar	<i>Patience is a plaster for all sores; As you make your bed, so you must lie on it</i>
Ehtiyotkorlikni ifodalovchi maqollar	<i>First think, then speak; All truths are not to be told</i>
Mehnatsevarlik va halollikni ifodalovchi maqollar	<i>A good name is better than riches; Pride goes before a fall</i>

Ingliz tilidagi paremiologik birliklarda milliy-madaniy jihatlar mazkur xalq turmush tarzining boshqa millatlar madaniy hayotidan farqlanuvchi o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ingliz tili paremiologik fondida antroposentrizmning milliy jihati, avvalo, ingliz jamiyatiga xos konservatizm orqali ifodalanadi. Uning ko'rinishlaridan biri milliy o'zlikni saqlash vositasi sifatida monarxiya va u bilan bog'liq an'analarni asrab qolishdir. Bu holat quyidagi maqol va matallarda aks etadi: *Kings have long arms / hands, many ears and many eyes; The King never dies; The King's word is more than another man's oath*. Ushbu misollarda "hammadan ustun maqomga ega inson" — qirol tushunchasi eksplitsit tarzda ifodalanadi. Ingliz tilidagi maqollarda tejamkorlik va ishbilarmonlik fazilatlarini alohida guruhni tashkil etadi hamda ularda iqtisodiy jihat muhim o'rin tutadi: *Strike while the iron is hot; A penny saved is a penny gained*. Shuningdek, maqollar voqelikni qayd etish vositasi sifatida milliy turmush tarzidagi qadriyatlarini aks ettiradi. Jumladan, milliy liboslar bilan bog'liq obrazlar bugungi kunda ham hurmat va aristokratiya ramzi sifatida implitsit ma'no kasb etadi: *It's not the gay coat that makes the gentleman; Cut your coat according to your cloth*. An'anaviy ravishda inglizlar ob-havo haqida so'zlashishni yoqtiruvchi xalq sifatida talqin qilinadi va bu jihat ingliz mentalitetining o'ziga xos madaniy kodi sifatida namoyon bo'ladi. Ob-havo bilan bog'liq paremiyalar nafaqat orol iqlimining xususiyatlarini ifodalaydi, balki ona tilida so'zlashuvchilarning mentalitetini ham implitsit tarzda aks ettiradi: *The morning sun never lasts a day; When it rains pottage you must hold up your dish; Small rain lays great dust; A year of snow, a year of plenty*. Diniy qarashlar, xususan, nasroniylik ham ingliz milliy xarakterining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Ingliz maqollarida iblis ko'pincha salbiy kuch sifatida tilga

olinadi: *What is got over the devil's back is spent under his belly; Talk of the devil and he is sure to appear; The devil is not so black as he is painted.*

Ingliz tili paremiologik fondida antroposentrizmning yana bir muhim jihati — “home” tushunchasiga alohida e’tibor berilishidir. Ingliz madaniyatida “uy” konsepti mustahkamlik, ishonchlilik, qo‘rg‘on, qal’a va xususiy mulk kabi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi: *There is no place like home; Burn not your house to rid it of the mouse; East or west, home is best; The Englishman's home is his castle; Every dog is a lion at home.* So‘nggi misolda antroposentrizm “home” leksemasi va “dog” zoonimi orqali implitsit tarzda ifodalangan. O‘z uyiga va umuman mamlakatga bo‘lgan muhabbatni qal’a obrazi bilan bog‘lash inglizlarning orol psixologiyasi hamda Angliyaning qit’adan geografik izolyatsiyasi bilan izohlanishi mumkin.

2-jadval

Ingliz tilidagi antroposentrizmga asoslangan paremiyalarda milliy-madaniy xususiyatlar

Guruhlar	Misollar	
	Eksplitsit	Implitsit
Konservatizmga asoslangan maqollar	The King can do no wrong	A lazy sheep thinks its wool heavy
Tejamkorlik va ishbilarmonlikka asoslangan maqollar	A penny saved is a penny gained	Strike while the iron is hot
Xulq-atvor asosida yasalgan maqollar	All are not thieves that dogs bark at	All that glitters is not gold
Milliy liboslar vositasida yasalgan maqollar	It's not the gay coat that makes the gentleman	Cut your coat according to your cloth
Ob-havo haqidagi maqollar	The morning sun never lasts a day	A year of snow, a year of plenty
Nasroniylik qarashlariga asoslangan maqollar	What is got over the devil's back is spent under his belly	An idle brain is the devil's workshop

Uy konsepti asosida yasalgan maqollar	There is no place like home	Every dog is a lion at home
--	--------------------------------	--------------------------------

Xulosa

Shunday qilib, ingliz tili antroposentrizmni umuminsoniy-universal hamda milliy-madaniy xususiyatga ega voqeliklar orqali eksplitsit va implitsit tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgan boy paremiologik tizimga ega. Ingliz tilining paremiologik birliklari inson ongini, uning atrof-muhitini va hayotiy dunyosini anglashning murakkab mexanizmlarini aniqlash, tavsiflash hamda o'zaro bog'lash qobiliyati bilan ajralib turadi. Maqol va matallarda antroposentrizm ifodasi orqali barqarorlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, faollik, hissiy vazminlik va sovuqqonlik, kamtarlik, xushmuomalalik, yopiqlik, maxfiylik hamda alohidalik kabi umuminsoniy axloqiy-me'yoriy xususiyatlar mustahkamlanadi va avloddan avlodga uzatiladi.

Shuningdek, hayvonlar, o'simliklar dunyosi, ob-havo, monarxiya yoki uyni anglatuvchi leksemalar orqali antroposentrizm ko'pincha implitsit tarzda ifodalanadi. Bu esa ingliz milliy mentalitetiga xos konservatizm, an'analarga sodiqlik, xususiy makon va shaxsiy hududni qadrlash, ijtimoiy vazminlik hamda insonlar bilan me'yoriy, masofali, biroq barqaror munosabat o'rnatishga moyillik kabi xususiyatlarning namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi antroposentrizmning ko'proq implitsit xarakterga ega ekani ingliz mentalitetining milliy o'ziga xosligini bilvosita aks ettiradi. Shu sababli, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar uchun paremiologik birliklarni to'g'ri anglash nafaqat leksik ma'noni, balki ularning ortidagi madaniy-kognitiv mazmuni ham tushunishni talab qiladi. Bu esa paremiologik materialni lingvokulturologik va antroposentrik yondashuv asosida o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Аникин В. П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор. — М.: 1957. — 237 с.

Бабкин А. М. Фразеология и лексикография // Лексикографический сборник. — Вып. 2. — М.: Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1957. — 213 с.

Бредис М. А. Лингвокультурологическая парадигма денежных отношений в паремиях (на материале русского, латышского, литовского, немецкого и английского языков) // Паремология в дискурсе: Общие и прикладные вопросы паремологии. Пословица в дискурсе и в тексте. Пословица и

языковая картина мира / под ред. О. В. Ломакиной. — М.: Ленанд, 2015. — С. 191–213.

Бредис М. А., Димогло М. С., Ломакина О. В. Паремии в современной лингвистике: подходы к изучению, текстообразующий и лингвокультурологический потенциал // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. — 2020. — Т. 11. — № 2. — С. 265–284.

Джусупов М. Антропоцентрические пословицы как лингвоконтрастивная и лингвометодическая проблема // O‘zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 5 (46). — С. 37–52.

Дубровин М. И. Английские и русские пословицы и поговорки в иллюстрациях. — М.: Просвещение, 1993. — 350 с.

Кирилина А. В. О применении понятия «гендер» в русскоязычном лингвистическом описании // Филологические науки. Научные доклады высшей школы. — М., 2000. — № 3. — С. 28–36.

Кубрякова Е. С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века // Язык и наука конца XX века. — М.: Flinta, 1995. — 238 с.

Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / Рос. академия наук. Ин-т языкознания. — М.: Языки славянской культуры, 2004. — 560 с. (Язык. Семиотика. Культура).

Мокиенко В. М. Аспекты исследования славянской паремиологии // Паремиология в дискурсе: Общие и прикладные вопросы паремиологии. Пословица в дискурсе и в тексте. Пословица и языковая картина мира / под ред. О. В. Ломакиной. — М.: Ленанд, 2015. — С. 4–25.

Пермяков Г. Л. Основы структурной паремиологии. — М.: Наука, 1988. — 236 с.

Савенкова Л. Б. Отрицательное сравнение в семантической структуре русских паремий // Филология и культура. — 2015. — № 2 (40). — С. 101–106.

Семененко Н. Н. Русские паремии: функции, семантика, прагматика. — Старый Оскол: РОСА, 2011. — 353 с. — ISBN 978-5-903659-83-8.

Тарланов З. К. Русские пословицы: синтаксис и поэтика. — Петрозаводск: Изд-во Петрозаводского ун-та, 1999. — 447 с.

Tosina Fernández L. J. Paremiology in the Digital Era. — 2024. — URL: https://www.comares.com/libro/paremiology-in-the-digital-era_158084/ (дата обращения: 19.02.2025).

References

- Anikin, V. P. (1957). *Russkie narodnye poslovitsy, pogovorki, zagadki i detskii folklor* (Russian folk proverbs, sayings, riddles and children's folklore), Moscow. (In Rus.)
- Babkin, A. M. (1957). Leksikograficheskii sbornik, 2, 213. (In Rus.)
- Bredis, M. A. (2015). *Paremiologiya v diskurse: Obshchie i prikladnye voprosy paremiologii. Poslovitsa v diskurse i v tekste. Poslovitsa i yazykovaya kartina mira* (Paremiology in discourse: General and applied issues of paremiology. Proverb in discourse and in text. Proverb and linguistic worldview), Moscow, Lenand, 191–213. (In Rus.)
- Bredis, M. A., Dimoglo, M. S., & Lomakina, O. V. (2020). *Vestnik Rossiiskogo universiteta druzhby narodov. Seriya Teoriya yazyka. Semiotika. Semantika*, 11, No. 2, 265–284. (In Rus.)
- Djusupov, M. (2022). *O'zbekistonda xorijiy tillar*, No. 5, 37–52. (In Rus.)
- Dubrovin, M. I. (1993). *Angliiskie i russkie poslovitsy i pogovorki v illyustratsiyakh* (English and Russian proverbs and sayings in illustrations), Moscow, Prosveshchenie. (In Rus.)
- Kirilina, A. V. (2000). *Filologicheskie nauki. Nauchnye doklady vysshei shkoly*, No. 3, 28–36. (In Rus.)
- Kubryakova, E. S. (1995). *Yazyk i nauka kontsa 20-go veka* (Language and science of the late 20th century), Moscow, Flinta. (In Rus.)
- Kubryakova, E. S. (2004). *Yazyk i znanie. Na puti polucheniya znaniy o yazyke. Chasti rechi s kognitivnoi tochki zreniya. Rol yazyka v poznanii mira* (Language and knowledge. On the way to acquiring knowledge about language. Parts of speech from a cognitive perspective. The role of language in cognition), Moscow, Yazyki slavyanskoi kultury. (In Rus.)
- Mokienko, V. M. (2015). *Paremiologiya v diskurse: Obshchie i prikladnye voprosy paremiologii. Poslovitsa v diskurse i v tekste. Poslovitsa i yazykovaya kartina mira* (Paremiology in discourse: General and applied issues of paremiology. Proverb in discourse and in text. Proverb and linguistic worldview), Moscow, Lenand, 4–25. (In Rus.)
- Permyakov, G. L. (1988). *Osnovy strukturnoi paremiologii* (Foundations of structural paremiology), Moscow, Nauka. (In Rus.)
- Savenkova, L. B. (2015). *Filologiya i kultura*, No. 2, 101–106. (In Rus.)

Semenenko, N. N. (2011). *Russkie paremii: funktsii, semantika, pragmatika* (Russian paremias: functions, semantics, pragmatics), Saint Petersburg, ROSA. (In Rus.)

Tarlanov, Z. K. (1999). *Russkie poslovitsy: sintaksis i poetika* (Russian proverbs: syntax and poetics), Petrozavodsk, Petrozavodsk State University. (In Rus.)

Tosina Fernández, L. J. (2024). *Paremiology in the digital era*, available at https://www.comares.com/libro/paremiology-in-the-digital-era_158084/, accessed 19.02.2025.